Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

03 October 2026

UDK 811.112.2

ZAMONAVIY LINGVISTIKA VA GLOBAL KOMMUNIKATSIYA

O‘ZBEK VA NEMIS NIKOH DISKURSIDA IRODAVIYLIKNING LINGVOPRAGMATIK MODELLARI

Qobiljon Shuhrat o‘g‘li Kaxarov*

Farg‘ona davlat universiteti

✉ qobili7000@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur tezisda o‘zbek va nemis nikoh diskursida irodaviylik, rozilik va majburiyatning verbal ifodalanish usullari qiyosiy-lingvopragmatik hamda lingvomadaniy jihatdan tahlil qilinadi. O‘zbek nikoh diskursida ota-ona roziligi, kollektiv qaror va oilaviy vakolatni ifodalovchi nutqiy birliklar, nemis nikoh diskursida esa kelin-kuyovning individual roziligi va shaxsiy majburiyatini ifodalovchi Ja, ich will, Ich nehme dich zu meinem Mann/meiner Frau, Ich verspreche Dir... kabi performativ va komissiv formulalar asosiy tahlil materiali sifatida olinadi. Qiyosiy tahlil ikki lingvomadaniyatda nikohning bir xil ijtimoiy institut bo‘lishiga qaramay, undagi kommunikativ subyekt, irodaviylik manbai va nutqiy aktlarning pragmatik yo‘nalishi turlicha modellashtirilishini ko‘rsatadi. Tahlil qilingan materiallar doirasida o‘zbek nikoh diskursida kollektiv-oilaviy iroda va ota-onalik vakolati nisbatan kuchliroq namoyon bo‘lsa, nemis nikoh diskursida individual rozilik, shaxsiy tanlov va kelajak uchun majburiyat olishga asoslangan komissiv-performativ tendensiya yaqqolroq kuzatiladi.

Kalit so‘zlar

nikoh diskursi, nutqiy akt, performativlik, komissiv, rozilik akti, irodaviylik, lingvopragmatika, lingvokulturologiya, Eheversprechen, kommunikativ strategiya.

DOI: 10.5281/zenodo.23278578

Nikoh jamiyat tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy institut bo‘lish bilan birga, til orqali voqelanadigan murakkab kommunikativ hodisadir. Nikoh marosimida qo‘llanadigan ayrim nutqiy birliklar mavjud holatni shunchaki tasvirlamaydi, balki muayyan ijtimoiy munosabatni performativ tarzda shakllantirish, tasdiqlash yoki kelajakdagi xatti-harakat uchun majburiyat olish vazifasini bajaradi. Shu sababli nikoh diskursini nutqiy aktlar nazariyasi asosida o‘rganish tilning nafaqat nominativ, balki harakat hosil qiluvchi xususiyatini ham aniqlash imkonini beradi.

J.L. Austin tomonidan ishlab chiqilgan performativlik konsepsiyasi va J.R. Searle tomonidan tizimlashtirilgan nutqiy aktlar nazariyasi nuqtayi nazaridan ayrim ifodalar “biror narsa haqida gapirish” emas, balki “gapirish orqali biror ishni amalga oshirish” xususiyatiga ega. Nikoh diskursidagi rozilik bildirish, va’da berish, qabul qilish, tasdiqlash va sadoqat bildirish aktlari ana shunday pragmatik xususiyatga ega.

O‘zbek va nemis nikoh diskursini qiyoslash esa bu jarayonning faqat universal xususiyatlarini emas, balki irodaviylikning kimga tegishli ekanligi, qarorning qanday kommunikativ shaklda ifodalanishi va nutqiy aktning qaysi qadriyatlarni kodlashini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek va nemis nikoh diskursida irodaviylik, rozilik va majburiyatning lingvopragmatik ifodalanish modellarini aniqlash hamda ularning lingvomadaniy xususiyatlarini qiyosiy tavsiflashdan iborat.

Tadqiqotda qiyosiy, lingvopragmatik, lingvomadaniy, diskursiv hamda nutqiy aktlar tahlili metodlaridan foydalanildi. Tahlil materiali sifatida o‘zbek nikoh va oilaviy diskursida ota-ona roziligi va kollektiv qarorni

ifodalovchi birliklar hamda nemis nikoh marosimlarida uchraydigan *Eheversprechen*, rozilik va va'da formulalari olindi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi o'zbek va nemis nikoh diskursidagi irodaviylikni kommunikativ subyekt, illokutiv kuch va madaniy qadriyatlar o'zaro munosabati asosida kollektiv-irodaviy hamda individual-komissiv modellar sifatida ajratish va ularning verbal markerlarini qiyosiy tavsiflashda namoyon bo'ladi.

O'zbek lingvomadaniyatida nikoh ikki shaxsning o'zaro munosabatigina emas, balki ikki oila va qarindoshlik tizimini birlashtiruvchi ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli nikoh bilan bog'liq kommunikatsiyada ota-ona, qarindoshlar va boshqa katta avlod vakillarining nutqiy pozitsiyasi sezilarli ahamiyat kasb etadi.

Tahlil materiallarida Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidan olingan Yusufbek hojining:

"O'g'lim, xaytovur sen eshitdingmi yoki yo'qmi, biz sening ustingdan bir ish qilib qo'ydik"

ifodasi o'zbek nikoh diskursidagi ota-onalik vakolatining lingvopragmatik ko'rinishi sifatida tahlil qilingan. Ushbu birlikda ayniqsa **biz** olmoshining qo'llanishi muhimdir. "Men" o'rniga "biz" shaklining ishlatilishi qarorning individual emas, oilaviy-kollektiv xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi.

"Biz ... ish qilib qo'ydik" konstruksiyasida bajarilganlik semantikasi mavjud bo'lib, adresat qaror qabul qilish jarayonining tashabbuskori emas, balki uning natijasi haqida xabardor qilinayotgan kommunikativ ishtirokchi sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan mazkur nutqiy vaziyatda ota-onaning irodasi maslahat doirasidan chiqib, qarorning ijtimoiy legitimlashuviga xizmat qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Tahlil materiallarida o'zbek nikoh madaniyatida ota-onaning roziligi, to'yni tashkil etishdagi yetakchi roli va oilaviy mas'uliyati alohida qayd etilgan. Nemis modelida esa ota-onalar ko'proq maslahat beruvchi va qo'llab-quvvatlovchi subyekt sifatida tavsiflanadi.

Shu asosda o'zbek nikoh diskursidagi irodaviylikning asosiy modelini quyidagicha ifodalash mumkin:

OILA → KOLLEKTIV QAROR → OTA-ONA ROZILIGI → NIKOHNING IJTIMOIY LEGITIMLASHUVI

Bu modelda nutq shaxsiy niyatni ifodalash bilan birga, oilaviy ierarxiya va avlodlararo hurmatni kommunikativ jihatdan verbalizatsiya qiladi.

Nemis nikoh diskursida esa kommunikativ markaz, asosan, nikohlanayotgan shaxslarning o'ziga ko'chadi. Cherkov nikohi doirasida quyidagi savol-javob uchraydi:

Willst du diesen Mann/diese Frau lieben und ehren, bis der Tod euch scheidet?

va unga javoban:

Ja, ich will.

Fuqarolik nikohida ham shunga yaqin shakl:

Möchten Sie diesen Mann/diese Frau als Ihren rechtmäßigen Ehemann/Ihre rechtmäßige Ehefrau annehmen?

savoliga:

Ja, ich will

javobi berilishi qayd etilgan.

Lingvopragmatik jihatdan *Ja, ich will* juda qisqa konstruksiya bo'lsa-da, uning illokutiv kuchi yuqori. Bu yerda *ich* birinchi shaxs birlik olmoshi individual kommunikativ subyektni, *will* modal fe'li esa uning shaxsiy irodasini ifodalaydi.

Shuning uchun mazkur formula oddiy tasdiq sifatida emas, balki **rozilikni performativ tarzda voqelantiruvchi nutqiy akt** sifatida talqin qilinishi mumkin. So'zlovchi "ha" deb javob berish orqali mavjud qarorni shunchaki xabar qilmaydi, balki muayyan marosimiy kontekstda rozilik aktini performativ tarzda amalga oshiradi.

Bu model quyidagicha umumlashtiriladi:

SHAXS → INDIVIDUAL IRODA → VERBAL ROZILIK → MAROSIMIY TASDIQ

Demak, o'zbek modelidagi kollektiv irodaviylik bilan nemis modelidagi individual rozilik o'rtasidagi asosiy tafovut kommunikativ markazning turlicha tashkil etilishida namoyon bo'ladi.

Nemis nikoh diskursining yana bir xarakterli komponenti *Eheversprechen* – nikoh va’dasidir. Mazkur diskursda quyidagi an’anaviy Eheversprechen formulasi qo‘llanadi:

Ich nehme dich zu meinem Mann/meiner Frau. Ich verspreche, dich zu lieben, zu ehren und dir treu zu bleiben, in guten wie in schlechten Tagen, bis der Tod uns scheidet.

Mazkur formulada *versprechen* fe’li markaziy pragmatik birlik hisoblanadi. So‘zlovchi ushbu fe’l orqali kelajakdagi xatti-harakatlariga nisbatan o‘z zimmasiga majburiyat oladi. Mazkur tahlilda ushbu holat J.R. Searlening komissiv nutq aktlari nazariyasi asosida izohlangan.

Komissiv aktning mohiyati so‘zlovchining kelajakdagi muayyan xatti-harakatni bajarishga o‘zini majbur qilishidir. Shu jihatdan:

Ich verspreche...

ifodasi mazkur aktning prototipik verbal shakli sifatida namoyon bo‘ladi.

Va’daning davomida keluvchi:

lieben – sevmoq,

ehren – hurmat qilmoq,

treu bleiben – sodiq qolmoq

infinitivlari nikoh munosabatining asosiy aksiologik komponentlarini ifodalaydi.

In guten wie in schlechten Tagen konstruksiyasidagi antitezis esa majburiyatning faqat qulay sharoit bilan chegaralanmaganligini ko‘rsatadi. *Bis der Tod uns scheidet* formulasi vaqt chegarasini inson hayotining nihoyasi bilan bog‘lab, va’daning maksimal davomiyligini ifodalaydi.

Shu asosda *Eheversprechen*ning pragmatik modeli quyidagicha ifodalanishi mumkin:

EMOTSIONAL IFODA → KOMISSIV VA’DA → MAJBURIYAT → SADOQAT → SHERIKLIK

Tahlil materiallarida zamonaviy nemis nikoh va’dalarining an’anaviy standart formulalar bilan cheklanmay, shaxsiylashtirilgan va emotsional jihatdan boy nutqiy matnlar shaklida namoyon bo‘lishi kuzatiladi.

Masalan:

Du bist mein Ein und Alles und die Liebe meines Lebens. Ich verspreche Dir, Dich für immer bedingungslos zu lieben und zu unterstützen.

kabi birliklarda komissiv nutq akti ekspressiv komponentlar bilan uyg‘unlashadi.

Bu yerda:

Ich verspreche Dir... – komissivlik;

mein Ein und Alles – metaforik-emotsional baholash;

die Liebe meines Lebens – qadrlilikning maksimal darajasi;

für immer – temporal absolyutlik;

bedingungslos – shartsizlik

semalarini yuzaga chiqaradi.

Natijada nikoh va’dasida ikki illokutiv qatlam birlashadi:

EKSPRESSIV AKT + KOMISSIV AKT

Ya’ni so‘zlovchi bir tomondan o‘z hissiyotini verbalizatsiya qiladi, ikkinchi tomondan esa kelajakdagi xatti-harakati uchun majburiyat oladi.

Bu xususiyat *Eheversprechen*ni oddiy romantik matndan ajratadi. Unda sevgi haqida gapirishning o‘zi yetarli emas; sevgi kelajak uchun mas’uliyat va sadoqat bilan pragmatik jihatdan bog‘lanadi.

Nemis nikoh diskursida yana bir xarakterli jihat sifatida turmush o‘rtog‘ining bir vaqtning o‘zida “eng yaxshi do‘st” sifatida konseptuallashtirilishi kuzatiladi.

Masalan:

Du bist nicht nur meine große Liebe, sondern auch mein bester Freund.

yoki:

Du bist mein bester Freund / meine beste Freundin...

kabi formulalar nikoh munosabatining faqat romantik sevgi emas, balki do‘stlik, ishonch va sheriklikka ham asoslanishini ko‘rsatadi. Mazkur tahlilda bu birliklar zamonaviy nemis nikoh konsepsiyasining emotsional va ijtimoiy sheriklikka asoslangan talqini sifatida izohlanadi.

Lingvopragmatik jihatdan bu yerda nikohning aksiologik strukturasi kengayadi:

TURMUSH O‘RTOQ = SEVGILI + DO‘ST + ISHONCHLI SHERIK

Shu tariqa nikoh diskursida sadoqat faqat institutsional majburiyat sifatida emas, balki emotsional yaqinlik va kundalik sheriklik sifatida verbalizatsiya qilinadi.

O‘zbek va nemis nikoh diskursini qiyoslash orqali kommunikativ irodaviylikning ikki dominant modeli ajratilishi mumkin. Quyidagi modellar qat’iy madaniy oppozitsiyani emas, balki tahlil qilingan materiallarda kuzatilgan dominant kommunikativ tendensiyalarni ifodalaydi.

O‘zbek nikoh diskursida:

BIZ → OILA → ROZILIK → IJTIMOIY MAS’ULIYAT

modeli nisbatan faol namoyon bo‘ladi.

Nemis nikoh diskursida esa:

ICH → SHAXSIY TANLOV → JA, ICH WILL → ICH VERSPRECHE → INDIVIDUAL MAJBURIYAT

modeli ustuvorlik qiladi.

Ushbu oppozitsiyani mutlaq madaniy qarama-qarshilik sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq emas. Gap ikki lingvomadaniyatdagi dominant kommunikativ tendensiyalar haqida bormoqda. Har ikkala madaniyatda ham shaxsiy rozilik, oilaviy munosabat va ijtimoiy mas’uliyat mavjud, biroq ularning diskursiv salmog‘i va verbal namoyon bo‘lish shakllari farqlanadi.

Shu nuqtayi nazardan *biz – ich* nisbati oddiy grammatik shaxs kategoriyasi doirasidan chiqib, nikoh diskursidagi madaniy irodaviylikning lingvopragmatik markeriga aylanadi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, nikoh diskursida uch asosiy pragmatik bosqichni ajratish mumkin.

Birinchi bosqich – **irodani shakllantirish va legitimlashtirish**. O‘zbek materialida bunda oila va ota-onaning kommunikativ mavqei kuchli namoyon bo‘ladi.

Ikkinchi bosqich – **rozilikni verbal tasdiqlash**. Nemis nikoh marosimida *Ja, ich will* formulasi bu funksiyaning konsentrlangan performativ ifodasi hisoblanadi.

Uchinchi bosqich – **kelajak uchun majburiyat olish**. *Ich verspreche Dir...* konstruktsiyasi ushbu bosqichning prototipik komissiv shaklidir.

Shu asosda nikoh diskursining umumiy pragmatik zanjirini quyidagicha ifodalash mumkin:

IRODA → ROZILIK → VA’DA → MAJBURIYAT → YANGI OILAVIY MUNOSABAT

Ushbu zanjirning alohida komponentlari turli lingvomadaniyatlarda turlicha kommunikativ salmoqqa ega bo‘ladi.

O‘zbek va nemis nikoh diskursining qiyosiy tahlili nikohga oid nutqiy birliklarning oddiy marosim formulalari emas, balki muayyan ijtimoiy va madaniy munosabatlarni yuzaga chiqaruvchi lingvopragmatik mexanizmlar ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbek nikoh diskursida oila, ota-ona roziligi va kollektiv mas’uliyat bilan bog‘liq irodaviy nutq shakllari muhim o‘rin tutadi. Bunda *biz* shakli kollektiv kommunikativ subyektni ifodalab, nikohning oilaviy va ijtimoiy legitimlashuvi bilan bog‘liq pragmatik mazmunni yuzaga chiqaradi.

Nemis nikoh diskursida esa *Ja, ich will* formulasi individual rozilikni performativ tarzda ifodalasa, *Ich verspreche Dir...* konstruktsiyasi kelajakdagi xatti-harakat uchun shaxsiy majburiyatni yuzaga keltiruvchi komissiv akt sifatida namoyon bo‘ladi. Shaxsiylashtirilgan *Eheversprechen*larda ushbu komissivlik emotsional-ekspressiv birliklar bilan birlashib, nikohning sevgi, sadoqat, do‘stlik, ishonch va sheriklikka asoslangan zamonaviy modelini verbalizatsiya qiladi.

Shunday qilib, **nikoh diskursidagi irodaviylik o‘zbek lingvomadaniyatida nisbatan kollektiv-oilaviy, nemis lingvomadaniyatida esa nisbatan individual-komissiv shaklda konseptuallashtiriladi**. Mazkur farqni ikki madaniyat o‘rtasidagi qat’iy oppozitsiya emas, balki kommunikativ markaz va nutqiy aktlarning dominant yo‘nalishidagi lingvomadaniy tafovut sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq.

Eng muhimi, nikoh diskursidagi *biz*, *Ja, ich will* va *Ich verspreche Dir* birliklari oddiy grammatik yoki leksik konstruksiyalar emas. Ular **kim qaror qiladi, kim rozilik bildiradi va kim kelajak uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi** degan ijtimoiy-madaniy savollarning lingvistik ifodasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Austin J.L. How to Do Things with Words. – Oxford: Clarendon Press, 1962.

[2] Searle J.R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969.

[3] Bennett M.J. Intercultural Communication: A Current Perspective // Basic Concepts of Intercultural Communication: Selected Readings. – Yarmouth, ME: Intercultural Press, 1988.

[4] Victoria B.C. Marriage Customs and Ceremonies in World Religions. – Trafford, 2005.

[5] Monger G. Marriage Customs of the World: An Encyclopedia of Dating Customs and Wedding Traditions. – Santa Barbara: ABC-CLIO, 2013.

[6] Fischer A. Feste und Bräuche in Deutschland. – Berlin: Sammüller Kreativ GmbH, 2004.

[7] Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – Toshkent: Navro‘z, 2019.